

**BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIDA VATANGA  
E`TIQOD TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH**

*QarshiDU pedagogika fanlari bo`yicha dotsenti(PhD)*

***Koraxonova Oysara***

*SHDPI "Ta`lim - tarbiya nazariyasi va metodikasi"*

*mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

***Qo`shmurodova A.***

*Telefon: (91) 465 38 56*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta`lim jarayonida boshlang`ich sinf o`quvchilarida vatanparvarlik, Vatanga e`tiqod tushunchalarini shakllantirish muammolari, usullari tahlil etilgan.

**Tayanch so`zlar:** Vatan, Vatanga e`tiqod, vatanparvarlik, davlat ramzlari, tarbiya, fuqarolik tarbiyasi.

Bugungi kundagi ta`limga berilayotgan e`tibor hamda jahon ta`lim tizimiga moslashuv jarayoni maktabdagi ta`lim tizimini isloh qilishni jadallashtirdi. Shu nuqtai nazardan yangi tahrirdagi DTS hamda "2022-2026 yillarda xalq ta`limini rivojlantirish bo`yicha milliy dasturni tasdiqlash" to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq yangi darsliklarning joriy etilishi, darsliklarga yangicha mavzularning kiritilishi hamda o`quvchilarga ta`lim-tarbiya berishda yangicha yondashuvning kirib kelishi mavjud metod va texnologiyalarni ham yangilashni talab etmoqda. Bugungi yosh avlodga avvalo uning o`zligini tanitish, keyin esa Vatanni e`zozlash, vatanparvarlik tuyg`ularini singdirish muhim. Ushbu maqola o`quvchilarda yuqorida keltirilgan sifatlarni shakllantirishda xizmat qiladi.

Vatanparvarlik tushunchasi Vatan so`zi bilan uzviy bog`liq bo`lib, aynan Vatan ana shu vatanparvarlikni paydo qiladi. Vatan so`zi esa arabcha so`z bo`lib, "ona yurt" degan ma`noni bildiradi. Vatan so`zini ikki xil - keng va tor ma`nolarda tushunish mumkin. Birinchi ma`nosi - insonning tug`ilib o`sgan qishlog`i, mahallasi, uyi bo`lsa, ikkinchi ma`nosi esa har bir xalq vakillari doimiy yashagan, ularning ajdodlari qadimdan istiqomat qilgan joy tushuniladi. Vatan, vatanga e`tiqod, vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirish azal- azaldan, ota- bobolarimizdan qolgan merosiy an`analardan biridir. Vatanparvarlik bu - Vatanimiz xalqiga, uning an`analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirishga o`z hissasini qo`shish, Vatan oldidagi mas`uliyat, millat manfaati bilan yashash, Vatan taraqqiyoti, millat obro`sigga obro` qo`shish, unga foyda keltirish, fidoyilik, halollik bilan mehnat qilish, xalqning shon-shuhrati va manfaatini o`ylash, insonparvar bo`lish demakdir.

Qadim-qadimdan vatanparvarlik ona allasi, xalq og`zaki ijodi, she`r, qo`shiq,

maqollar, ertaklar yordamida shakllantirilgan va hozir ham bu usul juda samarali bo`lib, bolalar ertak eshitib, she`r yodlab Vatan haqida tushunchaga ega bo`ladilar. Xalq og`zaki ijodi asarlaridaeng ta`sirli, eng shirin so`zlar Vatanni sevuvchi, uning tashvishini o`zining tashvishi, uning quvonchini o`zining sevinchi deb biluvchi, ona diyor sha`ni uchun kurashuvchi kishilar sharaflanadi. Aksincha, yomon so`zlar va qora bo`yoqlar salbiy obrazlarga nisbatan qo`llaniladi. Bu o`quvchining ham vatanga e`tiqodini shakllantiradi ham so`z boyligini oshiradi. Bunday asarlarga “Shiroq”, “To`maris” afsonalari, “Alpomish”, “Go`ro`g`li” kabi dostonlarni, buyuk ajdodlarimizdan biri Zahiriddin Muhammad Bobur bobomizning Vatan sog`inchi bilan yozilgan ruboiy va g`azallarini misol keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari boshlang`ich sinf o`quvchilarining yosh xususiyatlariga mos bo`lgan Vatan haqida ko`plab maqollar orqali ham o`quvchilarda vatanparvarlik tuyg`usini rivojlantirish mumkin.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarida Vatanga e`tiqod tushunchasini shakllantirishda eng avvalo o`quvchilarga o`zini sevisish va hurmat qilish o`rgatilishi lozim. Bunda albatta, ularning shaxsiy individual xususiyatlari hisobga olinadi. O`zini hurmat qilgan inson hamma narsani o`ziga munosibini tanlaydi va maqbul ishlarni bajaradi. Bunda o`quvchilar o`zlari yashayotgan uylari, o`qiyotgan maktab va sinf xonasini tozaligiga javobgarliklarini tushunib yetadilar. Agar mazkur usul to`g`ri va to`laqonli amalga oshirilsa o`quvchilar Vatan oldida ham xuddi shunday burchlari borligini anglab yetadilar. Vatanparlik tushunchasini shakllantirishga oddiy misol bu Davlat ramzlarini tushuntirishdir. Bu ish maktabga endi qadam qo`yilgan paytdanoq boshlanadi. Dastlabki darslar Vatanimiz va Mustaqillik bayrami haqida tushunchalar berishdan boshlanadi. Albatta, o`quvchilar sinfi yuqorilagan sari tushuncha va ma`lumotlar murakkablashtirib va ko`lami kengroq bo`lib boradi. Keyingi qadam esa Davlat ramzlarini tanishtirish va ulardagi har bir rang va elementni tasvirlab, ularning ma`nosini tushuntirishdan iborat. Keyingi o`rinlarda pul birligi, Konstitutsiya va har bir davlatni mustaqil ekanligini anglatuvchi boshqa ma`lumotlar berib boriladi.

Bugungi kundagi jamiyat hayotida ulkan o`zgarishlar ro`y berayotganligi va hayotimizga internet, aqlli texnikalarni kirib kelayotganligi bizga ham bir qancha imkoniyatlar taqdim etmoqda. Endi biz bevosita dars jarayonida axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanib o`quvchilarga Vatan, vatanparvarlik haqidagi animatsiya, videorolik yoki multfilmlarni ko`rsatishimiz mumkin. Sir emaski, eshitib o`rganilgan ma`lumotdan ko`ra, ham eshitib ham ko`rib olingan axborot o`quvchiga qiziqarli bo`ladi va tez yetib boradi. Bunda darsliklarimizning tubdan o`zgarganligi muhim ahamiyatga egadir. Yangi darsliklarimizda o`quvchilarni fikrlashga undaydidan, ularni mavzuga jalb qiladigan savollar, audio va videolar, hattoki animatsion multfilmlar ham mavjud bo`lib, bu o`qituvchilarga juda keng qamrovli imkoniyatlar eshigini ochdi. Bu darsliklardagi topshiriqlar va mavzular orqali

biz ko`plab fanlarni integratsiyalashimiz mumkin hamda bu juda katta qulaylik paydo qiladi. Vatanga e`tiqod tushunchasini shakllantirishda Tarbiya darsligi juda muhim bo`lib, bunda juda keng Vatan haqida mavzular va ma`lumotlar keltirilgan. Har bir mavzu o`quvchilarni fikrlashga o`rgatadigan savollar bilan boshlangan bo`lib, bunda o`quvchilardan bilim emas, balki hayotiy tajriba talab etiladi xolos. Masalan, "Vatanga e`tiqod deganda nimani tushunasiz?", "Siz o`zingizni vatanparvar deb o`ylaysizmi?", "Siz Vatan uchun nima qila olaman deb o`ylaysiz?" va shu kabi savollar berilgan. Biz bu kabi savollar orqali o`quvchilarning boshlang`ich tushunchalarini bilib olib, ularga yangi tushunchalar berishimiz mumkin. Vatanga e`tiqod tushunchasini shakllantirish bilan birga biz o`quvchilarga o`zlarining huquq va burchlarini ham tushuntirishimiz lozim. Bu bilan biz ularga Vatan oldidagi fuqarolik tarbiyasini ham bergan bo`lamiz.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, boshlang`ich sinf o`quvchilarida Vatanga e`tiqod tushunchasini shakllantirish va rivojlantirish Mustaqil va iqtisodiy rivojlanish sari katta qadamlar bosib borayotgan O`zbekiston uchun nihoyatda muhim hisoblanadi. Mamlakatimiz rivojiga rivoj qo`shadigan yosh avlodga bilim berishda har tomonlama to`g`ri yondashuv, kompyuter savodxonligi, kuchli bilim, ajdodlarimiz merosidan xabardorlik kabilar talab etiladi. Zero, Vatan kelajagi yoshlar qo`lida.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. O`zbekiston Respublikasi "Ta`lim to`g`risida"gi qonuni (yangi tahriri), 2020
2. "2022-2026 yillarda xalq ta`limini rivojlantirish bo`yicha milliy dasturni tasdiqlash" to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2022
3. R.Mavlonova, O.To`rayeva, K.Xoliqberdiyev Pedagogika. "O`qituvchi" nashriyot-matbaa uyi, Toshkent - 2006
4. R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonqulova Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent - 2010
5. N.Ismatova va boshqalar 2-sinf uchun Tarbiya darsligi. T: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2020.